

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ  
DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI  
RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**uluslararo ilmiy-nazariy  
konferansi materiallari**

**Toshkent – 2023**

**UO'K:**  
**KBK:**  
**A 51**

**Mas'ul muharrirlar:**  
**Shuhrat SIROJIDDINOV,**  
filologiya fanlari doktori, professor  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili  
va adabiyoti universiteti rektori

**Zokirjon MASHRABOV,**  
geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, professor,  
Bobur nomli xalqaro jamoat fondi raisi

**Tahrir hay'ati:**

Sirojiddin Sayyid (O'zbekiston), Elisabetta Ragagnin (Italiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Tanju Oral Seyhan (Turkiya), Darya Jigulskaya (Rossiya), Farhad Rahimi (Eron), Vahob Rahmonov (O'zbekiston), Hamidulla Dadaboyev (O'zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Islam Jemeney (Qozog'iston), Hamidulla Boltaboyev (O'zbekiston), Qosimjon Sodiqov (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Ne'matilla Otajonov (O'zbekiston), Abdumajid Madraimov (O'zbekiston), Nusratulla Jumaxo'ja (O'zbekiston), Omonulla Bo'riyev (O'zbekiston), Sultonmurod Olim (O'zbekiston), Iqboloy Adizova (O'zbekiston), Burobiya Rajabova (O'zbekiston), Shuhrat Hayitov (O'zbekiston), Odina Jamoldinova (O'zbekiston), Zulxumor Xolmanova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Ziyoda Teshaboyeva (O'zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Otabek Jo'raboyev (O'zbekiston), Marg'uba Abdullayeva (O'zbekiston), Oysara Madaliyeva (O'zbekiston), Hilola Nazirova (O'zbekiston), Nodirbek Jo'raqo'ziyev (O'zbekiston), Sabohat Bozorova (O'zbekiston,) Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston), Dilafroz Muhammadiyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 25-yanvardagi "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-20-sonli Qaroriga ko'ra o'tkazilayotgan "Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o'rni" mavzusidagi uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari jamlangan. To'plamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyati, adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyot rivojidagi o'rni, adabiy-lingvistik, tarixiy-sotsiologik tadqiqi, shuningdek, Bobur va boburiylar siymosining zamonaviy adabiyotdagi badiiy talqini, adabiy ta'sir va izdoshlik masalalariga bag'ishlangan maqolalar o'rin olgan. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

*Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

**THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND  
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK  
LANGUAGE AND LITERATURE**

**UZBEKISTAN WRITERS UNION**

**BABUR INTERNATIONAL PUBLIC FOUNDATION**

**The Proceedings of the International Scientific-  
Theoretical Conference**

**«THE IMPACT OF ZAHIR AD-DIN  
MUHAMMAD BABUR'S LEGACY ON THE  
ADVANCEMENT OF EASTERN  
STATEHOOD AND CULTURE»**

**Tashkent - 2023**

**Chief editor:**

**Shuhrat SIROJIDDINOV,**

*Doctor of Philology, Professor  
Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of  
Uzbek Language and Literature*

**Zokirjon MASHRABOV,**

*Professor  
Chairman of Babur International Public Foundation*

**Editorial Board:**

Sirojiddin Sayyid (Uzbekistan), Elisabetta Ragagnin (Italy), Almaz Ulvi (Azerbaijan), Tanju Oral Seyhan (Turkey), Darya Jigulskaya (Russia), Farhad Rahimi (Iran), Vahob Rahmonov (Uzbekistan), Hamidulla Dadaboyev (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Islam Jemeney (Kazakhstan), Hamidulla Boltaboyev (Uzbekistan), Kosimjon Sodikov (Uzbekistan), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Ne'matilla Otajonov (Uzbekistan), Nusratulla Jumaxo'ja (Uzbekistan), Abdumajid Madraimov (Uzbekistan), Omonulla Buriyev (Uzbekistan), Sultomurod Olim (Uzbekistan), Ikboloy Adizova (Uzbekistan), Burobia Rajabova (Uzbekistan), Shuhrat Hayitov (Uzbekistan), Odina Jamoldinova (Uzbekistan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekistan), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Ziyoda Teshaboyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan), Karomat Mullaxujayeva (Uzbekistan), Otabek Juraboyev (Uzbekistan), Marguba Abdullayeva (Uzbekistan), Oysara Madaliyeva (Uzbekistan), Hilola Nazirova (Uzbekistan), Nodirbek Jurakuziyev (Uzbekistan), Sabohat Bozorova (Uzbekistan), Ozoda Tojiboyeva (Uzbekistan), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekistan)

In commemoration of the 540<sup>th</sup> anniversary of Zahir ad-Din Muhammad Babur's birth, a luminary poet, scholar, and statesman, we are pleased to present a compendium of erudite contributions derived from the international academic conference titled "The Impact of Zahir ad-Din Muhammad Babur's Legacy on Eastern Statehood and Culture." This compilation explores various aspects of Babur's life and achievements, including his contributions to literature and scholarship, as well as linguistic and historical investigations. This volume is intended for scholars, researchers, students, and a wider audience interested in Babur's enduring influence on Eastern culture and governance.

*Note: Variations in author views and article titles may exist due to editorial preferences.*

## “BOBURNOMA” BIOGRAFIK MANBA SIFATIDA

Tojiboyeva Ozoda Tohirovna\*

### Annotatsiya

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘zbek va dunyo olimlari tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Asarning xorijiy tillarga tarjima qilinishi ham alohida tadqiqot obyekti tashkil etadi. Mazkur maqolada angliyalik olimlar Artur Lumley Devidsning “Turk tili grammatikasi” (1832) va Charlz Per Genri Riyo tomonidan tuzilgan “Turkiy qo‘lyozmalar katalogi” (1888)da ma‘lumotlarni dalillash, tarixiy shaxslar, adiblarning tarjimayi holini berishda “Boburnoma”dagi ma‘lumotlar asos vazifasini bajargani yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** *“Boburnoma”, manba, tavsif, tarixiy shaxs, biografik talqin.*

## "BOBURNOMA" AS A BIOGRAPHICAL SOURCE

### Annotation

The work of Zahir ad-Din Muhammad Babur “Baburnama” has been carefully studied by Uzbek and foreign scientists. Translation of a work into foreign languages is also a separate object of research. In this article “Grammar of the Turkish Language” (1832) and “Catalog of Turkish Manuscripts” compiled by Charles Pierre Henri Riot (1888), English scientists Arthur Lumley Davids prove this information. foundations for covering biographies of historical, personal and literary figures.

**Key words:** *“Baburnama”, source, description, historical figure, biographical interpretation.*

Shoh va shoir, qomusiy asar muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o‘rganish dunyo adabiyotshunosligida uzoq tarixga ega. Bobur asarlarining g‘arb tillariga tarjimalari va nashrlari ham o‘zbek olimlari tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Tarjimonning badiiy mahorati tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar sirasida “Boburnoma”ning ingliz olimlari tomonidan o‘rganilishi alohida talqiqot obyekti tashkil etadi. Jumladan, Joy Leyden va Uilyam Erskin, Anet Beverij xonim, Viler Tekstoun tarjimalari boburshunoslikka qo‘shilgan muhim hissa sifatida e‘tirof etiladi. Ilmiy adabiyotlarda kam e‘tibor qaratilgan yana ayrim olimlar borki, ularning ham boburshunoslikdagi alohida mehnatini baholash va ommalashtirish zarur vazifalardan biridir. Shu o‘rinda Angliyada Bobur shaxsiyati va ijodiga doir ma‘lumotlar berilgan ikki turkumdagi kitoblarni qayd etish maqsadga muvofiq:

1. Bobur asarlari tilshunoslik obyekti sifatida olingan asarlar.
2. Bobur qo‘lyozmalari tavsiflari kiritilgan kataloglar.

Turkiy adabiyotning o‘rta asrlardagi eng yorqin vakillari – Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning g‘arbda o‘rganilishi o‘ziga xos talqinlarga ega. Kuzatishlar davomida Navoiyni fors adiblari qatorida o‘rgangan fransuz va nemis olimlariga nisbatan Angliya olimlari turkiy tilli adabiyotga, xususan, “Boburnoma”ga ko‘proq e‘tibor qaratgani va undan asosiy manba sifatida foydalangani ko‘zga tashlanadi. Yuqoridagi millat olimlari esa o‘rta asr tarixi va undagi muhim shaxslar faoliyatini yoritishda forsiy tildagi Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-

---

\* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. ozoda@navoiy-uni.uz

shuaro” va Som Mirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy” asaridagi ma’lumotlarga tayanadilar. Inglizlarning Bobur shaxsiga va “Boburnoma”ga qiziqishining yana bir sababi – Hindistonning mustamlaka qilinishi va u yerdagi adabiy merosning ingliz olimlari tomonidan nashrga tayyorlanishi bilan ham bog‘lab talqin qilish mumkin. Mustamlaka davlatning tarixini o‘rganish uchun ham “Boburnoma” ularda katta qiziqish uyg‘otgani tabiiy hol.

“Boburnoma” o‘rta asr haqida ma’lumot beruvchi qomusiy asar bo‘lishi bilan birgalikda o‘sha davr tarixini turkiy tilda ifoda etib bergan tilshunoslik manbasi hamdir. Shu ma’noda “Boburnoma” turkiy tilning nazariy asoslari, lug‘atlarga doir ilmiy tadqiqotlarga ham asos manba bo‘lib xizmat qilgan. Shunday manbalardan biri ingliz sharqshunosi Artur Lumley Devidsning “Turk tili grammatikasi” asaridir. Asar 1832-yili Angliyada nashr etilgan. Asli yahudiy millatiga mansub Artur Lumley Devids (Arthur Lumley Davids; 1811-1832)ning mutaxassisligi huquqshunos-notarius bo‘lsa-da, o‘z davrida kasbi bo‘yicha ishlashning imkoni bo‘lmaydi. Natijada, u yoshligidan yaxshi olingan ta’lim, qunt bilan izlanishlar ortidan Yevropa tillarini hamda fors, arab, turk tillarini o‘zlashtiradi. Mazkur tillar orasidan turkiy tilga ayricha munosabati, qiziqishi tufayli turkiy tillar grammatikasiga doir manbalarni diqqat bilan o‘rganadi. Atigi 21 yil yashagan bo‘lsa-da, qisqa umri davomida o‘zining mashhur “Turk tili grammatikasi” (Grammar of the Turkish Language, with a Preliminary Discourse on the Language and Literature, of Eastern Nations) asarini yaratadi. Kitobning qimmatli jihati shundaki, unda turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixi bilan bog‘liq rivoyatlar, O‘g‘uzxon syujeti, turkiy so‘zlarning turk, ingliz, fors tilidagi lug‘ati, nazariy qoidalari tartibi bilan berilgan. Turkiy tilli adiblarning tarjimayi holidan so‘ng kitob oxirida ularning asarlaridan parcha eski o‘zbek yozuvida va ingliz tilidagi tarjimasi bilan ilova qilingan. Asarlardan berilgan turkiy tildagi parchalar 4 guruhga taqsimlangan: 1. Uyg‘ur: “Baxtiyornoma”; “Qutadg‘u bilig”; “Me‘rojnoma”; “Tazkirai avliyo”. 2. Chig‘atoy: “Boburnoma”; “Shajarai turk”; “Majolis un-nafois”. 3. Qipchoq (Qozon): “Chingizxon”. 4. Usmonli: Boqiy g‘azali; Masihiy va b. Kitob ichidagi bo‘limlar ham ana shu asosda davom etadi.

Kitobdagi tartib bo‘yicha ikkinchi qismdan o‘rin olgan chig‘atoy tilidagi matnlarni berish uchun avvalo shu til va unda ijod qilgan adiblar haqida ham ma’lumot berilgan. Olim dastlab umumiy mazmundagi kirish ma’lumot berib, shu tilga mansub buyuk shaxslar tarixini yoritadi. Xususan, Amir Temurning “Temur tuzuklari” kitobi forsiyda ekani, hali turkiy tildagi nusxasi topilmagani, buyuk sarkarda turkiy tildan boshqa tilni bilmagani (bu yerda olim mo‘g‘ul degan tushunchaga aniqlik kiritishga harakat qilgan, forsiy tilni bilishi aytilmagan), Hindistonni bosib olgan Bobur ham turkiy ekani, uning armiyasida biror mo‘g‘ul askar bo‘lmagani, mustamlaka ostidagi hind xalqining og‘zaki va yozma yodgorliklarini nashrga tayyorlagan va tarjima qilgan Uilyam Jons (William Jones; 1746-1749) Bobur tarixini chuqur o‘rgangan bir hind olimi bu xatoni o‘z ishida to‘g‘rilab qo‘yganini dalil sifatida keltiradi [Devids 1835, 37-38]. Umuman, olim bu yerda Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasi degan qarashning noto‘g‘ri ekanligini asoslashga harakat qilgan. Uilyam Jons ingliz olimlaridan birinchi bo‘lib hind davlati tarixi, ilm-fanini o‘rgangan, nashrga tayyorlagan mashhur olim. Devids o‘z ma’lumotlarini dalillash uchun uning fikrlariga tayanishi shubhasiz va bu borada u to‘g‘ri yo‘lni tutgan. Qolaversa, kitobning turkiy tillar grammatikasiga bag‘ishlangani ham shuni taqozo etadi.

Amir Temur ta'rifidan keyin Mirzo Ulug'bek ta'rifi, so'ng Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Xususan, Alisher Navoiyga doir ma'lumotlar ham Bobur bergan ta'riflardan olingan. Kitobda Navoiyga aloqador qismlar uch o'rinda keladi. 1. Mir Alisher qismida. 2. Bobur ta'rifida. 3. Asar matnlaridan parcha va uning tarjimasida. Mir Alisher qismida turkiy adabiyotga hissa qo'shgan adiblarning eng yirigidir, taxallusi Navoiy (Nuvai), Xurosonda hukmronlik qilgan Sulton Husayn Mirzoga vazir edi, ko'plab ajoyib she'riy va nasriy asarlari bilan shuhrat qozondi, deya qayd etadi [Devids 1832, 38].

Alisher Navoiy ta'rifidan so'ng Bobur haqidagi qism "Voqeoti Boburiy", deb boshlanadi. Devids Boburning bu kitobdagi uslubi, yo'nalishi bilan Yuliy Sezarga o'xshashi, kitob turkiy adabiyotning olmosi ekanligi, yaxshi hamki yo'qolib ketmagani, asar qo'lyozmasi Jon Leyden qo'lida saqlanishini aytib o'tadi. Asardan olingan taassurotlari asosida Boburning tarjimayi holi, didi, dunyoqarashi, mashaqqatlarini bir-bir qayd etadi. Matn davomidan Husayn Boyqaro saroyi tasviri eng qiziq joyi va Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlari eng ishonchlisi deb qayd etib, Navoiyning faoliyati, asarlari, homiyligida yetishib chiqqan madaniyat va san'at vakillari haqidagi qismning ingliz tilidagi batafsil tarjimasini beradi [Devids 1832, 38-41]. Qariyb uch betda "Boburnoma"dagi Navoiy ta'rifi berilgan. Olim ma'lumotlarni berishda asarning Jon Leyden va Uilyam Erskin tarjimasini ham qayd etadi. Abulg'ozining "Shajarai turk" asari ta'rifida ham Navoiy asarlarini tarjima qilish zarurligi, bu ishni akademiklar o'z zimmasiga olishi lozimligi, izohda esa Mark Etenn Katrmer bu ishni rejalashtirganini eslatadi. Devids o'z davridagi Sharqqa oid ilmiy taqiqotlar bilan ham chuqur tanishgan, ulardan kerakli o'rinlarda asos sifatida foydalangan. Demak, olim "Boburnoma" ortidan o'rta asr tarixi, tili, mashhur shaxslari hayoti va faoliyatini ham yoritishga muvaffaq bo'lgan. Asarlarini tarjima qilib, qisman parcha bo'lsa-da, ingliz tilli kitobxonga tanishtirgan. To'g'ri, u "Boburnoma"ni tarjima qilgan Uilyam Erskinga zamondosh, Uilyam Jons va Jon Leydendan keyin yashagan bo'lsa ham baribir o'sha davr ruhiyati, ayni ilm-fandagi qizg'in muammolar davrida edi. Boburning turkiydagi buyuk "Boburnoma" asari va shu til egasi bo'lgan turkiy xalqning yorqin shaxslari uning e'tiborini tortishi tabiiy edi.

Ilova qismida "Boburnoma"dan "Bog'i Maydonning orqasi Qo'lba o'langiga tushuldi. Samarqand eli sipohi va shahri Puli Muhammad Chab navohisig'a qalin chiqtilar" deb boshlanuvchi matn bilan boshlanib, "Yana bir rasad qilibturlar, holo hindularning musta'mal Hindustonda ul zichdur. Bu rasadni bog'lag'oni ming besh yuz sekson to'rt yildur. Bu ul zichlarg'a boqa noqisroqtur. ..." matni bilan yakunlanadi [Devids 1832, 189-182]. Demak, olim ilova uchun ham tarixiy joylardan parcha olgan.

Mazkur kitob A.Devidsning onasi Sara Devids tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan (1836). Ko'rinadiki, kitob ham ingliz, ham nemis tilida ommalashgan. Umuman, Devidsning yosh bo'lishiga qaramay to'plagan ma'lumotlari, bilimi asosida shakllangan mazkur kitob ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, Angliyadagi turkiyshunoslikni o'rganishga asos bo'la oladi.

Odatda, navoiyshunoslik tarixida Alisher Navoiyning xoriydagi ilk tadqiqotchilardan biri sifatida Charlz Riyo tilga olinadi. Asli shveysariyalik bo'lgan Charlz Pyer Genri Riyo (Charles Pierre Henri Rieu; 1820- 1902) Britaniya muzeyi Sharq qo'lyozmalari bo'limidagi faoliyati davomida turkiy va forsiy tildagi qo'lyozmalarni kataloglashtirgan. Natijada, Sharq adabiyoti manbalarini jamlagan "Fors qo'lyozmalari katalogi" (4 jild, 1879-95) va "Turkiy qo'lyozmalar katalogi"

(1888)ni tuzadi. Har ikki to'plam Islom Sharqiga oid ma'lumotlar ombori bo'lib, chuqur izlanishlar natijasida yuzaga chiqqan. Keyingi davr rus va dunyo sharqshunoslari o'z ishlarida Charlz Riyoning mazkur kitobiga tayanadilar, har bir asarning Angliyadagi ilk tadqiqotchisi sifatida e'tirof etishadi. Olim Alisher Navoiyning ham yigirmadan ortiq asarlari manbasini tavsiflagan. Kitob garchi bibliografik xarakterga ega bo'lsa-da, ko'rsatilayotgan qo'lyozma tavsifidagi ma'lumotlar katta ahamiyat kasb etadi. Sababi olim har bir kitobni tavsif qilish jarayonida muallifning tarjimayi holi, yashagan davri, faoliyati, zamondoshlari hamda asar mazmunini ham qisqacha yoritib o'tgan. O'sha ma'lumotlarni berish uchun Riyo shubhasiz ko'plab manbalarni ko'zdan kechirgan qiyosiy tekshirib ko'rgan.

“Turkiy qo'lyozmalar katalogi”da Boburning bitta asari – “Voqeoti Boburiy” manbasi tavsiflangan. Biroq olim Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro va ularga zamondosh adiblarning asarlarini tavsiflashda ham Bobur bergan ma'lumotlarga tayanadi. Bunda u “Boburnoma”ning Ilminskiy nashrini asos qilib oladi. Jumladan, “Devoni Husayniy” qo'lyozmasi ta'rifida Husayn Boyqaroning shaxsiyati, u haqidagi ma'lumotlar Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Som Mirzo Safaviyning “Tuhfai Somiy”, Boburning “Boburnoma” asarida, yana uning ayrim baytlari “Riyo ush-shuaro”, Velyaminov-Zernov nashrga tayyorlagan “Abushqa”da uchrashini aytadi [Rieu 1888, 256]. Shu o'rinda Boburning “Boburnoma”da Husayn Boyqaroga bergan “Taxallusi Husayniy edi. Ba'zi baytlari yomon emastur, vale mirzoning devoni tamom bir vazndadur” degan fikrlarini ingliz tilida misol qilib keltiradi.

Alisher Navoiy asarlari uchun Mirzo Mehdixon tomonidan tuzilgan forsiy-turkiy lug'at – “Sangloh” qo'lyozmasi ta'rifida berilgan katta hajmdagi ma'lumotlar sirasida Navoiy asarlari haqida “Bobur xotiralari”da ham bor, deya qayd etadi [Rieu 1888, 266]. “Majolis un-nafois” tavsifida Alisher Navoiy turkiy adabiyotda eng sermahsul ijodkorligi, mazkur ma'lumotlar Bobur asarida yoritilgani, Navoiy garchi Hirotda tug'ilib o'sgan bo'lsa-da, o'z asarlarida turkiy tildagi shevalardan foydalangani, Farg'onaning bosh shahri Andijon shevasida yozganini ta'kidlaydi [Rieu 1888, 273]. Shu o'rinda olim “Boburnoma”dagi “Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim, Hirida nash'u namo topibtur, bu til biladur”, degan qaydlarini asos qilib ko'rsatadi. Ch.Riyo o'z ma'lumotlarini dalillash, ilmiy aniqligini kuchaytirish uchun “Boburnoma”ning Ilminskiy nashriga asoslangan, manbadan olingan o'rinlarni aniq ko'rsatib o'tgan. “Sab'ai sayyor” asari qo'lyozmasi tavsifida Husayn Boyqaroning o'g'li Badiuzzamonga tarbiyaviy nasihatlar qilgani, shahzoda haqida yana Bobur asaridan ma'lumot olish mumkinligini eslatadi [Rieu 1888, 293]. Husayn Boyqaroning ikkinchi o'g'li Shohg'arib mirzo ta'rifi ham Fransua Belen tarjimasidagi “Majolis”da, Bobur asarida borligi, yana “Devoni Navoiy” tavsifidagi qaydlarda eslab o'tiladi.

“Qisas ar-Rabg'uziy” asari qo'lyozmasi ta'rifida Rabg'uziyning tili Alisher Navoiy va Bobur tiliga nisbatan qadimiyligi, turkiy tilning fonetik xosliklari, arxaik qatlamlarini o'zida jamlagan til ekanligini aytadi [Rieu 1888, 271].

Shayboniyxonning “Bahrul ho'do” asari tavsifida matn “Tangriga til birla ayg'il, ey ko'ngul, hamdu sano, /Kim, siposu shukr loyiqdur anga bemuntaho” misralari bilan boshlangani, Shayboniyxon hayoti, ijodi, yurishlari, umri xotimasi haqida ma'lumot beradi. Shayboniyxon Boburning raqibi, Bobur uning she'riy iste'dodini juda kamsitgan, deya qayd etadi [Rieu 1888, 285].

“Turkiy qo'lyozmalar katalogi”da Bobur asarining bitta – “Voqeoti Boburiy” qo'lyozmasi tavsiflangan xolos. Tavsifda asar qismlari Ilminskiy nashriga qiyosan



tekshirilgan. Ko‘rinadiki, Charlz Riyo tavsif qilayotgan asarlarning mualliflari, hayoti, faoliyati haqida ham ma‘lumot berish uchun “Boburnoma”dan asos sifatida foydalanadi. Bu bilan ingliz kitobxoniga Sharq adabiyoti va adiblari haqida muayyan darajada tasavvurlar berishga erishadi.

Alisher Navoiyning qo‘lyozmalariga nisbatan Bobur asari manbalari juda kam. Hindistondagi forsiy tilli adabiyot katalogini tuzgan Uilyam Jons bitta, Bodleyan kutubxonasidagi “Forsiy, turkiy, hind va pushtu tilidagi qo‘lyozmalar katalogi”ni (1889) tuzgan Eduard Sachau (Eduard Sachau, 1845-1930), Herman Ete (Hermann Ethé, 1844-1917)lar ham Boburning beshta qo‘lyozmasi – “Voqeoti Boburiy”ni tavsiflashgan. Keyingi ikki olim tuzgan qo‘lyozmalar katalogi haqiqiy ma‘nodagi qomusiy kitob deyish mumkin. Qo‘lyozma tavsifida asar haqida ma‘lumot beriladi. So‘ng asarni o‘rgangan, tarjima qilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari batafsil ko‘rsatilgan. Joy Leyden va U.Erskin tarjimasi, M.Kaldekot asari, Hammer Purgshtal, Pave de Kurteyl, B.Dorning “Osiyo muzeyi” qo‘lyozmalari tavsifida, shuningdek, Ilminskiy tarjimasi – hammasi nomlari, yili bilan aniq ko‘rsatilgan. Umuman, olimlar tavsifga olinayotgan har bir adibning davri, zamondoshlari, hayoti va faoliyati, asarlari manbalari, ularni o‘rgangan olimlarni to‘liq qayd etgan [Sachau, Ethe 1889, 101-103]. Shu ma‘noda har ikki olim katta vazifani bajargan va bu bilan nafaqat qo‘lyozmasi tavsifi, balki o‘sha davr adabiyoti, tarixini ham yoritib berishgan. Temuriylar tarixi, adabiyoti, “Tabaqoti Akbarshoh” asari, yana boburiylar sulolasi davrida yaratilgan barcha asarlarda Bobur yodga olinadi. Kitobda Bobur “Boburnoma” bilan o‘rta asr tarixi haqida ma‘lumot beruvchi adib bo‘lishi barobarida Hindiston tarixining keyingi uch asrlik tarixi, madaniy-adabiy hayotiga asos solgan shaxs sifatida gavdalangan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi ilm-fan garchi mazkur kitoblarda berilgan ma‘lumotlardan ilgarilab ketgan bo‘lsa-da, o‘z davrida ularning turkiy adabiyot tadqiqi yo‘lidagi xizmatlari e‘tirofga sazovor.

### **Adabiyotlar**

Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 1989. *Бобурнома*. Тошкент.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 1986. *Бобурнома* (بابورنامه). Қозон (Н.Ильминский) нашри. Қозон.

Davids Arthur Lumley. 1832. *A Grammar of the Turkish language: with a preliminary discourse on the language and literature of the Turkish nations, a copious vocabulary, dialogues, a collection of extracts in prose and verse, and lithographed specimens of various ancient and modern manuscripts*. London: Parbury & Allen.

Sachau, Eduard. 1889. *Catalogue of the Persian, Turkish, Hindûstânî and Pushtû Manuscripts in the Bodleian Library, Begun by Prof. Ed. Sachau, ... Continued, Completed and Edited by Hermann Ethé, ... Part I. the Persian Manuscripts*. Oxford: Clarendon Press.

*Memoirs of Zehir-ed-din Muhammed Baber emperor of Hindustan*. 1826. Translated partly by John Leyden, partly by William Erskine.

William Jones. 1771. *A Grammar Of The Persian Language*. London.

Charles Rieu. 1888. *Catalogue of the Türkish Manuscripts in the British Museum*. London.

<b>MUNDARIJA CONTENTS</b>	
<b>Shuhrat SIROJIDDINOV.</b> Babur: a ruler, poet and encyclopedist scientist	5
<b>Franko KARDINI.</b> Великий правитель, любящий искусство слова или великий поэт, любящий царство	15
<b>I SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA FAOLIYATI, DAVLATCHILIK SIYOSATI PANEL I. THE LIFE, ACTIVITIES, AND STATEHOOD POLICIES OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR</b>	
<b>Zokirjon MASHRABOV.</b> Bobur – sayyoh va tabiatshunos olim	22
<b>Stephen Frederic DALE.</b> Babur's Timurid Sultanate	25
<b>Nurboy JABBOROV.</b> Bobur – kamolot timsoli	41
<b>Kemal Yavuz ATAMAN.</b> Global/Küresel Bir Lider Portresi: Babür Şah	49
<b>Vahob RAHMONOV.</b> Bobur qilmagan vasiyat muammosi	58
<b>Mehmet AÇA.</b> Babür Üzerinden Bir Kahramanlık Okuması	61
<b>Sultonmurod OLIM.</b> Bobur hayoti, e'tiqodi va ijodida tasavvufning o'rni va ahamiyati	67
<b>Ramiz Əskər.</b> Babur fenomeni	74
<b>Abdumajid MADRAIMOV.</b> Taqdir, tarix va tasvir (Boburning g'aroyib taqdiri, tarixi va tasviri)	78
<b>Karomat MULLAXO'JAYEVA.</b> Hukmdorlarga o'rnak bo'ladigan, dunyo olimlari havas qiladigan umr e'tirofi	82
<b>Azizullah ARRAL.</b> Kobulda shoh bo'lmishdur hazrati Bobur	89
<b>Botir YULDASHEV.</b> Boburiylar davlatida yerga egalik qilishning jogird tizimi	94
<b>Azizjon SHARIPOV.</b> "Boburnoma"da Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy-harbiy faoliyatiga doir ma'lumotlar (Hindiston fathi misolida)	101
<b>Avazbek MIRZAYEV.</b> Zahiriddin Muhammad Boburning tabiatshunoslikka oid qarashlari	114
<b>Quvonch EHSONULLO.</b> Afg'onistondagi Bobur bog'ining tarixiy va bugungi holati	117
<b>Erkin Mohammad Aalim.</b> Zahiriddin Muhammad Boburning Afg'onistondagi hokimiyati va obodonchilik sohasida amalga oshirgan ishlari	124
<b>II SHO'BA. BOBURIYLAR IMPERIYASIDA FAN VA SAN'AT TARAQQIYOTI PANEL II. THE IMPACT OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S LITERARY LEGACY ON THE ADVANCEMENT OF GLOBAL AESTHETIC THOUGHT</b>	

<b>Abdurrahman GÜZEL, Ali Fuat BİLKAN.</b> Babürlü Kuzey Hindistanında Ali Şîr Nevâyî Tesiri	129
<b>Almaz ÜLVİ (BİNNATOVA).</b> İki qüdrətli şah – iki şöhrətli şair ( <i>Şah İsmayil Xətai-566 və Zahirəddin Məhəmməd Babur-540</i> )	135
<b>Jaloliddin JO'RAYEV, Gulsanam XOLIQULOVA.</b> Abulvajd Forig'iy va uning adabiy merosi	137
<b>Sebahat DENİZ.</b> Büyük Türk Hakanı Babür'ün ve Neslinin Türk Edebiyatının Gelişmesindeki Rolü	147
<b>Ilyos ISMOILOV.</b> "Boburnoma" da shuaro zikri	148
<b>Nodira ALLAMBERGENOVA.</b> Komron Mirzo – Bobur she'riyatining munosib vorisi	152
<b>PANEL III. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARINING ADABIY-ESTETİK, ANTROPOLOGİK VA LINGVOKULTUROLOGİK XUSUSIYATLARI</b>	
<b>PANEL III. THE LITERARY, AESTHETIC, ANTHROPOLOGICAL, AND LINGUACULTURAL CHARACTERISTICS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S WORKS</b>	
<b>Qosimjon SODIQOV.</b> Boburning til bilimi borasidagi qarashlari	157
<b>Tanju Oral SEYHAN.</b> Babur Şah ve Kültür Politikasında Türk Dili ve Edebiyatının Yeri	169
<b>Farhad RAHIMI.</b> Çağatay Sözlüklerinde Bābūr Şah Tanıkları Üzerine	182
<b>Ziyodaxon TESHABOYEVA.</b> Tibbiyot terminlarining "Boburnoma" da aks etishi va inglizcha tarjimalari	197
<b>Süveyda ŞAHİN, Nergis BİRAY.</b> Babur Divanında Geçen Organ Adlarıyla Yapılmış Deyimler	206
<b>Muqaddas ABDURAHMONOVA.</b> Omonimiya – turkiy tillarga xos semantik imkoniyat sifatida	214
<b>Alisher MAMAJONOV, Abduvohid ALISHEROV.</b> Bobur ma'naviy-axloqiy ruhiyati – yoshlarga ibrat	219
<b>Tohir TURDIBOYEV.</b> Bobur g'azallaridagi bog'lovchilarning pleonastik xususiyati	225
<b>Sayyora SHODMONOVA.</b> "Boburnoma" dagi vaqt o'lchov birliklari leksemalarining inglizcha tarjimalarda qayta tiklanishi	228
<b>IV SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE'RIYATINING O'RTA ASRLAR VA ZAMONAVIY ADABIY JARAYON TAKOMILIDAGI O'RNI</b>	
<b>PANEL IV. THE ROLE OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S POETRY IN THE DEVELOPMENT OF MEDIEVAL AND MODERN LITERATURE</b>	
<b>Bilâl YÜCEL.</b> Zahîrüddin Muhammed Babur'un Rubaisindeki Matematik Sanatı	238
<b>Nusratullo JUMAXO'JA.</b> Bobur forsiy she'rlarining badiiyati	247
<b>Mehmet SARIKÖSE.</b> Babür Divanı'nda Şahsiyetler	254
<b>Iqboloy ADIZOVA.</b> Bobur ijodida kichik masnaviy janri	265

<b>Usmon QOBILOV.</b> Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida mumtoz an'anaviy obrazlar talqini	275
<b>Dilnavoz YUSUPOVA.</b> Aleksandr Mixaylovich Shcherbak – "Aruz risolasi"ning tadqiqotchisi	278
<b>Orzigul HAMROYEVA.</b> Bobur ruboiylarida vazn va qofiya uyg'unligi	285
<b>Aida BUMATOVA.</b> "Boburnoma"dagi she'riy namunalar tarjimasida obrazlar	289
<b>Şehla MƏCIDOVA.</b> Babur poeziyasında sevgi qasidi səba	293
<b>Jamila EISAR.</b> Bobur she'riyatida folklorning o'rni	294
<b>V SHO'BA. "BOBURNOMA"NING ADABIY-LINGVISTIK VA TARIXIY-SOTSIOLOGIK TALQINLARI</b> <b>PANEL V. THE LITERARY, LINGUISTIC, HISTORICAL AND SOCIOLOGICAL INTERPRETATIONS OF "BABURNAMA"</b>	
<b>Hamidulla DADABOYEV.</b> XVI asr o'zbek tili so'z boyligi taraqqiyotida Boburning o'rni	298
<b>Islam JEMENEY.</b> "Boburnoma"da qozoq, qozoqlik va turkiy el haqidagi qarashlar	302
<b>Дарья Жигульская.</b> «Бабур-наме» как исторический источник в исследованиях профессора Т.И. Султанова	310
<b>Muhittin GÜMÜŞ.</b> Türkiye'de Bâbürnâme Üzerine Çalışmalara Kısa Bir Bakış	314
<b>Zulxumor XOLMANOVA.</b> Bobur – semantikaning sohir bilimdoni	325
<b>Muhterem SAYGIN.</b> Zahîrüddin Muhammed Bâbü'r'ün Hatıratında Ali Şîr Nevâyî'nin Sosyal Çevresi ve Kişiliği	332
<b>Rukhsana Iftikhar.</b> Socio-Cultural Legacies of Central Asia in Tuzuk -i Baburi	337
<b>Akramjon DEHQONOV.</b> "Boburnoma"da Boburga zamondosh temuriy hukmdorlar portretining yaratilishi	344
<b>Байболот АБЫТОВ.</b> «Бабур намэ» как комплексный источник по истории востока: преимущества и проблемы	349
<b>Muxtor MIRZOAHMEDOV.</b> "Boburnoma"da ma'muriy-boshqaruv tizimiga doir huquqiy atamalarning qo'llanishi	356
<b>Omonullo BO'RIYEV.</b> "Boburnoma"da Hirotning tarixiy-geografik tavsifi	361
<b>Батырхан БОЛАТБЕК, Кастер САРКЫТКАН.</b> Великие наследие тюркского мира – Бабурнама и казахская духовность	366
<b>Маҳмадшо МАХМАДШОЕВ.</b> Таҷассуми шахсиятҳои адабӣ, илмӣ ва ҳунарий дар "Бобурнома"-и Заҳируддин Муҳаммад Бобур	373
<b>Ihom ASLONOV.</b> "Boburnoma" kompozitsiyasi va uslubida muallif psixologik holatlarining aks etishi	384
<b>Elmira HAZRATQULOVA.</b> Tarixiy asarlarda valiylarga munosabat	389
<b>MahliyoXon TUXTASINOVA.</b> Bobur asarlarining L. Budagov lug'atida aks etishi	401

<b>VI SHO'BA. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ADABIY-ILMIY MEROSINING FILOLOGIK ASPEKTI</b> <b>PANEL VI. THE PHILOLOGICAL ASPECT OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S LITERARY AND SCIENTIFIC HERITAGE</b>	
<b>Baxtiyor FAYZULLOYEV.</b> Adabiy ta'limda "Boburnoma"ni o'rganish masalalari	406
<b>Ne'matilla OTAJONOV.</b> The problem of filling up blanks (gaps, lacuna) in Babur's "Baburname" (Memoirs)	410
<b>Otabek JO'RABOYEV.</b> Zahiriddin Muhammad Boburning jahon qo'lyozma fondlaridagi asarlari haqida	416
<b>Shuhrat HAYITOV.</b> "Boburnoma"ning yangi tarjimalari xususida	423
<b>Elçin İBRAHİMOV.</b> Zahîrüddîn Muhammed Babürün "Baburname" Eserinin Türkçe'ye Katkıları	429
<b>Marg'uba ABDULLAYEVA.</b> "Boburnoma" tadqiqotlar obyekti sifatida	432
<b>Ahmet AKALIN.</b> Türkiye'de Babür Araştırmaları: Doktora ve Yüksek Lisans Tezleri Üzerine Betimsel Bir Araştırma	438
<b>Shaxlo NARALIYEVA, Xulkar XAMRAYEVA, Salimjon G'ANIYEV.</b> Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida yuritiladigan umumta'lim maktablarida Bobur ijodini o'rganishning innovatsion usullari	443
<b>Jo'ra XUDOYBERDIYEV.</b> Boburiy xat va unda bitilgan Qur'on: topilishi, dastlabki tadqiqotlar	448
<b>Muso TOJIBOYEV.</b> Bobur ijodiy merosining germeneytik konsepsiyasi	455
<b>Gulnoza JO'RAYEVA, Farrux QULSAXATOV.</b> "Boburnoma" asarini o'qitishda integrativ yondashuv	459
<b>Oysara MADALIYEVA.</b> "Boburga oid manbalar" daftari xususida (Abdulla Nosirov, O'zR FA ShI asosiy fondi № 13395)	455
<b>Ozoda TOJIBOYEVA.</b> "Boburnoma" biografik manba sifatida	469
<b>Dilafroz MUHAMMADIYEVA.</b> "Boburnoma"ning elektron platformasini yaratish – davr talabi	474
<b>Sirdaryoxon O'TANOVA.</b> "Boburnoma"ning ozarbayjoncha tarjima-kitoblari haqida ayrim mulohazalar	481
<b>VII SHO'BA. BOBUR VA BOBURIYLAR SIYMOSINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI BADIY TALQINI, ADABIY TA'SIR VA IZDOSHLIK MASALALARI</b> <b>PANEL VII. THE PORTRAYAL OF BABUR AND BABUR STUDIES SCHOLARS IN MODERN LITERATURE, ISSUES RELATED TO LITERARY INFLUENCE AND FOLLOWERSHIP</b>	
<b>Bahodir KARIMOV.</b> "Boburnoma" va "O'tkan kunlar" romani qiyosiga doir ayrim mulohazalar	487
<b>Афтандил ЭРКИНОВ.</b> Легитимация вымысла в Кокандском ханстве при Умар-хане (1810-1822): как "Бахтияр-нама" Дакаики Самарканди легло в основу легенды об "Алтун бишик"	495
<b>To'lqin ESHBEKOV.</b> Xayriddin Sultonning "Boburiynoma" ma'rifiy romanida ma'rifat sarchashmasi	513

<b>Yulduz KARIMOVA.</b> Bobur Mirzo shaxsiyati va ijodi jadidlar nigo­hida	520
<b>Sabohat BOZOROVA.</b> Babürnâme Esasında Yazılmış Özbek Tarihî Hikayeleri	525
<b>Azamat ZARIPOV.</b> Bobur nazmiy an’analarining Abdulla Oripov she’riyatidagi poetik sintezi	534
<b>TEZISLAR</b>	
<b>Mardon RAHMATOV.</b> “Boburnoma” asarida kiritma iboralar	540
<b>Shaxnoza ASQAROVA.</b> “Alpomish” va “Boburnoma”dagi onomastik birliklar tahlili masalasi	545
<b>Yulduz ABDULHAKIMOVA.</b> Navoiy va Bobur ijodida masnaviy	547
<b>Gulzoda SOATOVA.</b> Bobur va jadidlar ijodida vatanparvarlik g’oyalari mushtarakligi	550
<b>Zarnigor DAVRONOVA.</b> “Boburnomada” keltirilgan antroponimlarning o’ziga xos xususiyatlari	554
<b>Ёркиной Алтмишева.</b> О переводе исламских юридических терминов «Бабурнаме» на русский язык	556
<b>Gulsanam ABDAZOVA.</b> “Boburning bir jumlası” ingliz tarjimonlari talqinida	559
<b>Tohirjon QOZOQOV.</b> “Boburnoma”da Umarshayx Mirzoning poytaxti Axsining tasvirlanishi	561

**ILMIY NASHR**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**uluslararo ilmiy-nazariy  
konferansi materiallari**

**Toshkent - 2023**